

NEMIS VA O‘ZBEK TILLARIDAGI SIFATLARNING
KOMMUNIKATIV-KOGNITIV KONSEPTIDAGI VAZIFALARI

Quramboyeva Muqaddas Islom qizi
UrDU filologiya fakulteti magistranti
+998935589407

Annotatsiya. Ushbu maqolada konsept bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borgan tilshunoslarning tadqiqotlariga to‘xtalinadi. Kompliment konsepti yoki boshqacha qilib aytganda, mulozamat, xushomadgo‘ylik, xushmuloqot, takalluf – nemis tilida turg‘un ibora shaklida namoyon bo‘lishi va ushbu konseptning tarkibida sifat turkumiga oid so‘zlar faol ishlatilishi borasidagi qarashlar beriladi.

Kalit so‘zlar: Konsept, Fenomen, Kognitiv, Kompliment tushunchalari.

Barchamizga ma‘lumki, so‘nggi yillarda konsept faqatgina tilshunoslik elementi bo‘libgina qolmasdan, balki, mantiq, falsafa va adabiyotshunoslikda ham asosiy element sifatida qo‘llanilmoqda. Shuningdek, konsept madaniyat va inson o‘rtasidagi aloqa vositasi sifatida tan olinib, unga kognitiv tilshunoslik fanining asosiy yo‘nalishi sifatida baho berilmoqda. Hozirgi kunda milliy va lingvistik-madaniy tushunchalarni tahlil qilish dolzarb hisoblanadi. Ta‘kidlash joizki, tilshunoslik sohasida “konsept” atamasini talqin qilishda yagona yondashuv mavjud emas.

Konsept (sonceptus) so‘zi lotincha bo‘lib, “tushuncha” degan ma‘noni anglatadi. Konsept bilann tushunchaning bir-biriga bog‘likligi mavjudligini ko‘plab tadqiqotchilar ta‘kidlaydilar, lekin bu bog‘liklikni turlicha ta‘riflaydilar. Tilshunoslikda konsept atamasi bir vaqtning o‘zida ham eski, ham yangi hisoblanadi. 1928 yilda A. Askoldovning "Концепт и слово" maqolasida ko‘proq tilga olingan. XX asr o‘rtalariga kelib esa, “konsept” tilshunoslikda atama sifatida qo‘llanila boshlagan. Tilshunos olim Sh.Safarovning qayd etishicha, konseptlar inson ongida shakllanadigan turli kategoriyalarning asosini tashkil qiladi, ular uchun tayanch bo‘lib xizmat qiladi¹.

V.I. Karasik birinchi bo‘lib tushunchalarni “kognitiv konsept” va “lingvomadaniy konsept” yoki “madaniy konsept”ga ajratadi. Bunda madaniy konsept til, tafakkur va madaniyatni kompleks o‘rganishda qo‘llaniladigan shartli mental birlik sifatida ta‘riflanadi.²

N.D. Arutyunovanning fikriga ko‘ra, tushunchalar “inson va dunyo o‘rtasida vositachilik qiladigan bir turdagi madaniy qatlamni” hosil qiladi. Kontsept milliy an‘analar, folklor, din, mafkura, hayotiy tajriba, san‘at tasvirlari, hissiyotlar va

¹ Safarov Sh. Kognitiv Tilshunoslik – Jizzax: Sangzor, 2006.

² Karasik.V.I. O kategoriyax lingvokulturologiiyu// yazikovaya lichnost: problem kommunikativnoy deyatelnosti:Sb.nauchn.trudov. – Volgograd.: Peremena, 2001. S.3-16

qadriyatlar tizimlari kabi omillarning o‘zaro ta’siri natijasida izohlanadi.³

Pimenova M.V quyidagi misollarni berib o‘tgan Obrazlar (Rus, mat, Rossiya); g‘oyalar (kommunizm, sotsializm); timsollar (kabutar); madaniyat konseptlari, bular: madaniyatning universal kategoriyalari (vaqt, harakat, o‘zgarish, sabab, oqibat, sifat); ijtimoiy-madaniy kategoriyalar. (hurlik, haqiqatgo‘ylik, mehnat, boylik va h. k.); etik kategoriyalar (ezgulik, yovuzlik, burch, rostlik, haqiqat); mifologiyaga oid kategoriyalar (xudo, farishta, ruh, shayton).

Xususan, A.B.Babushkin, E.S. Kubryakova, I.A.Sternin va boshqalar tomonidan olib borilgan kognitiv tilshunoslik tadqiqotlarida “konsept” ong, qabul qilingan bilim, tajriba, inson hayotining natijalari birligi va g‘oyalar to‘plami sifatida qaraladi va ma‘lum bir madaniyat bilan bog‘liq bilimlar hisoblanadi.

Konsept semantik jihatdan so‘zning leksik ma‘nosiga nisbatan boyroqdir. Konsept inson ongida shakllangan ma‘lum bir keng qo‘llaniluvchi tushunchadir.

Konseptning tahlilini quyidagi poetik matn misolida ko‘rishimiz mumkin:

Oymomoyu oymomo,

Kosa to‘la moy momo.

Balki, shakar solingan

Shiringina choy momo.

Oymomoyu oymomo,

Kulcha bo‘ling, hoy momo.

Yaxshilarga kulchayu

Yomonlarga yoy momo.⁴ (Anvar Obidjon)

Keltirilgan she‘riy matnda “oy” konsepti haqida so‘z yuritilmoqda. “oy” konsepti o‘zbek tili sohiblarining tafakkurida quyidagicha assotsiatsiyalanadi:

- 1) Yovuzlikdan panoh toppish, ezgulik;
- 2) Yangilik, yangi hayot;
- 3) Rizq hamda farovonlik;
- 4) Diniy e‘tiqod. (Islom dinida);
- 5) Go‘zallik;
- 6) Tinchlik.

“Oy” konsepti orqali o‘zbek tili vakillarining tafakkurida “oy yuzli”, “oydayin go‘zal yuzli” o‘xshatishlar shuningdek, “Oyni etak bilan yopib bo‘lmas” kabi maqollar mavjud. Safarga otlangan kishiga ezgulik ulashish maqsadida “Oy borib, omon qayt” birligi ham qo‘llaniladi. Yuqorida keltirilgan she‘riy mantda ham “oy” konsepti ezgulik vositasi sifatida qayd etilgan. Bundan tashqari, “oy” konsepti lingvomadaniy ahamiyatga ham ega bo‘lib, u rus madaniyatida ham go‘zallikka qoyil qolish ma‘nosida “лицо как луна” iborasi mavjudligini ta‘kidlash joiz. Lekin ruslar ongida “oy”

³ Arutyunova N.D. Выдение // Logicheskiy analiz yazyka. Mentalnye deystviya. – M.: Nauka, 1993.-216s

⁴ 15 . Anvar Obidjon. Saylanma. Toshkent -2019. 161-bet

qorong`ilik, oxirat, hayot-momot tarzida tasavvurlar bor. Shu singari misollarni boshqa xalqlar madaniyatida ham uchratish mumkin. Masalan, Vetnam xalqi hayotidagi jamiki ezguliklarni oy orqali tasavvur etadilar.

Xushbo`y sifatining sinonimi sifatida hidli so`zi sinonimlar lug`atida keltiriladi. Biroq bu holatga qo`shilish qiyin. Chunki “hidli” semasi ostida har qanday hid, ya`ni ham xushbo`y hid, ham qo`lansa hid tushunilaveradi.

“Muattar” ko`proq badiiy uslubda qo`llanadi:

Mehnat-u g`ayrat-la go`zal bog`imga

Yaxshi niyat bilan ko`chat ekanman.

Shoyad shu mehnatim qo`shilgan chog`da

Yana xushbo`y hidga burkansa chaman. (G`ayratiy)

Qizil rang konsepti - Qizil rang insoniyat hayotida muhim ro`l o`ynab kelgan. Rus tilida красный (qizil) va красивый (chiroyli) so`zlari bir o`zakdan hosil bolgani uchun qizil rang ijobiy ma`no kasb etadi. O`zbek tilida qizil rangining quyidagi ma`nolari mavjud:

1) „xursandchilik” ma`nosi; Bishingga sanchilgan qizil gul bo`lsin // Menday oyim jamoliga qul bo`lsin, 2) “go`zallik” ma`nosi Kuymasini hech kimning kulba xonasi, //o`rtanmasin qizil gulday tanasi, 3) "yor, oshuqa” ma`nosi: Bog`bon bo`lmay qizil gulni terasan, // Lolazor baharli yerda yurasan, 4) “mavjudlik, tiriklik ma`nosi” Qizil yuzim gariblikda sargayib, // o`ligim bo`lmasin mening besohib, ochilganda qizil g'uncha so`nmasin, / Dunyoda mard kishi hech bir o`lmasin, 5) “mutlaqo” o`ta ketgan, “g`irt” ma`nosi: Ravshanbek shu yerda qip-qizil tentakka chiqib qoldir.⁵

Qayd etilganlar bilan birga, qizil rang “yoshlik”, “navqironlik” ma`nolarini ham ifodalaydi: Bekning oti po`lat suvliq chaynadi, // qizil kiyib gulday bolib chaynadi.

Uzoq Sharq mamlakatlarida qizil rang kelin va kuyov atrofidagi barcha buyumlarda o`z aksini topgan bo`ladi. Koreya va Mo`g`ulistonda yangi yil kiyimlariga tumor sifatida qizil doirachalar tikib qo`yiladi. Ayrim lingvomadaniyatlarda qizil rang jug`rofiy belgi sifatida qo`llaniladi. Masalan, Maya qabilasida qizil rang sharqni, Qadimgi Meksikaning tog`li xalqlarida janubni ifodalagan.

Qizil rang boshqa davlatlarga qaraganda Xitoyda juda katta ramziy ma`noga ega. Xitoyda qizil - rang farovonlik, to`kin-sochinlik va baxtli hayot timsoli sifatida qabul qilinadi, shuningdek, qizil, darvozalar oliy tabaqadagi zodagonlar, boylar yashaydigan uylarni ifodalagan. Xitoyda bayram, hursandchilik kunlarida binolarga qizil fonuslar ilib qoyiladi, juft qizil yozuvlar yopishtiriladi. “Qizil” iyeroglifi xursandchilikni ifoda etadi. Quyudagi iboralarda qizil rang omadni anlatadi: “qizil eshiklarning ochilishi” (omad sari yo`l ochilish), “qizil bog`ich boylash” (tilla qoshga ega bo`lish) va boshqalar. Xitoy lingvomadaniyatida qizil rang yana go`zallik ramzi ham hisoblanadi. Masalan, chiroyli qizga “qizil yuzli”, deb murojaat qilinadi. Aytilganlar bilan birga,

⁵ Ergash shoir va uning dostonchilikdagi o`rni. Tadqiqotlar 2-kitob, - Toshkent fan, 1971. B 124: 233

qizil rang turli madaniyatlarda qondan oqadigan hayot, tiriklik timsoli bo‘lib ham keladi. Jumladan, O‘zbekiston respublikasi davlat bayrog‘idagi qizil yo‘llar - bu har bir tirik jonning qon tomirida urib turgan hayotiy kuch, hayot ramzidir.

Ko‘k rang – tinchlik, musaffo osmonni tasvirlaydi. Tiniq osmon rangdagi moviy, zangori, umuman olganda ko‘k tusga mos bir qancha mos o‘xshash ranlar ham ko‘k deyiladi.⁶

Kompliment konsepti yoki boshqacha qilib aytganda, mulozamat, xushomadgo‘ylik, xushmuloqot, takalluf – nemis tilida turg‘un ibora shaklida namoyon bo‘lishi ham mumkin va ushbu konseptning tarkibida sifat turkumiga oid so‘zlar faol ishlatiladi. Og‘zaki muloqotda, masalan o‘zbeklar bilan o‘zbeklar, nemislar bilan nemislar o‘zaro bir-birlariga mulozamat, xushomad qilsalar, turli til vositalari va shakllaridan foydalanadilar.⁷

Ishtirokchilari tomonidan qisqa, juda ham sermulozamat usulda, o‘zlashtirma gap sifatida, to‘g‘ridan-to‘g‘ri va shunchaki yuzaki yoki kreativ (qiziqarli, bo‘yoqdor, sermazmun va serqirra) mazmunda ifoda qilinadigan Kompliment muloqotdir. Masalan: suhbatdoshingizning ko‘ylagi, hashamatli uyi, mazali taom, o‘zini tuta bilishi, yoqtirgan futbol jamoasi, bajargan ishiga nisbatan kompliment muloqotga misol bo‘la oladi.

O‘zbek yozuvchilarimiz rang-tus bildiruvchi sifatlardan foydalanib ularni badiiy tasvirlarda, jonlantirish kabi stilistik priyomlarda unumli kompilimentlardan foydalanilgan. Misollar:

O p p o q choyshab yopib dala, qir,
Qor qo‘ynida uxlab yotadi,
Poyezd hamon uchib ketadi,
O q qirlarni bosib o‘tadi . .
(U y g‘ u n).

Chekib debon tig‘i xunfig‘onni,
Cherpk birla q a r o aylab jahonni.
(A. N a v o i y).

Q i z i l gulday xotim qoldi. Voh, voh peshonam, qizil gulday... (Oybek).

Qiz zoti qizil olma, suvda balqib, qalqib kelayotgan qizil olmani ko‘rsangiz, cho‘kib ketishni unutib, qo‘lingizni cho‘zasiz unga (O y b e k).

Taqsir, bugun sahar Qo‘qondan keglidik, — javob berdi kattagina, novchadan kelgan, cho‘tir kiish (O y b e k),

Nemislar deyarli barcha (Komplimente machen) komplimentdan unumli

⁶ usmanova. Lingvokulturologiya B163

⁷ Baymanov X.A. Inson xarakteriga xos sifat leksemalarning funksional-semantik xususiyatlari (nemis va uzbek tillar misolida). Diss....avtoref. f.f.f. dok. (PhD). – Toshkent 2020.

foydalanadilar va buni san'at deb bilishadi. Issiq so'zlar, go'zal so'zlar qalbga balzam. Kimki boshqalarga mehrlil iltifotlar bilan quvonch baxsh etishga muvaffaq bo'lsa, o'z ishida va shaxsiy hayotida muvaffaqiyat qozonadi. Psixologiya tasdiqlaydi: maqtovlar eshiklarni ochish, hamdardlik qozonish va atmosferani engillashtirish uchun kuchli vositadir. Qisqasi: maqtovlar munosabatlarni mustahkamlaydi. Biroq, ular ishonchli bo'lishi va yurakdan chiqishi kerak. Yaxshi maqtovlar uchun maslahatlar va ro'yxatlar - hamkorlar, do'stlar, hamkasblar, erkaklar va ayollar uchun...

Qisqa maqtovlar (kurze Kompliment)⁸

Qisqa so'zlar va so'zlar bilan ham hurmat ko'rsatishingiz mumkin. Mana, hali ham yurakka boradigan qisqa maqtovlarning bir nechta misollari.

- 1) dein Lächeln ist bezaubernd. Was macht dich so glücklich? (Sizning tabassumingiz yoqimli. sizni nima baxtli qiladi)
- 2) ich finde es beeindruckend, dass du jeden Morgen joggen gehst. (men har kuni yugurishingni ta'sirli deb bilaman)
- 3) du bist einzigartig. (sen noyobsan)
- 4) du hast eine wahnsinnige Ausstrahlung. (Senda ajoyib xarizma bor)
- 5) du bist ein großartiges Vorbild für andere. (Sen boshqalar uchun ajoyib namunasan)

Nemis tili komplimentlarida va yana ko'p holarda quyidagi sifat leksemalar qo'llanilishi kuzatildi: nett (das ist sehr nett von Ihnen), gutherzig (sie sind sehr gutherzig), hübsch (Sie sind sehr hübsch), lustig (Mein Kind ist sehr lustig), perfekt (du bist sehr Perfekt so wie du bist).

Kompliment tarkibida sifatlardan tashqari, xushomad darajasini oshirish maqsadida, richtig, komplett, absolut, wirklich kabi ravishlar ham qo'llaniladi: masalan: Deine Haare sind wirklich wunderschön. (Sochlaringiz juda chiroyli.)

So'z birikmasi, nominativ vazifasiga ko'ra, oddiy so'z kabi nominatsiya birligi hisoblanadi, lekin undagi tarkibiy qismlari alohida ravishda shakllangan. Nominatsiyalar nazariyasi asosida so'z birikmalari lisoniy va nutqiy turlarga ajratiladi. Lisoniy nominatsiyalar birligi – til tizimiga kiruvchi, aniq bir ob'ektni nomlaydigan tayyor lug'aviy birlikdir: Masalan, do'stlar orasida maqtovlar ro'yxati:

Du hast wunderschöne Augen. (Senda chiroyli ko'zlar bor.)

- 1) "du bist einer der intelligentesten Menschen, die ich kenne." (sen men bilgan eng aqilli odamlardansan)
- 2) du bist ein sehr herzlicher Mensch. (sen juda samiyimiy insonsan)
- 3) du kommst mit jeder neuen, noch so schwierigen Situation zurecht. (Senga qanchalik qiyin bo'lmasin, har bir yangi vaziyatni yengishing mumkin)
- 4) ich bewundere, wie fest du mit beiden Beinen im Leben stehst und auch in stressigen Situationen immer ruhig bleibst.“ (Hayotda ikkala oyog'ing bilan

⁸ <https://karrierebibel.de/>

qanchalik mustahkam turishing va hatto stressli vaziyatlarda ham doimo xotirjam bo'lishingga qoyil qolaman.)

Nemis tilidagi achtsam, attraktiv, authentisch, aufmerksam, aufregend, atemberaubend, ausdrucksstark, ausgewogen hamda o'zbek tilidagi ehtiyotkor, jozibali, haqiqiy, diqqatli, hayajonli, hayratlanarli, ifodali, muvozanatli sifatlarida antonimlik belgilari mavjud. Ular ega bilan birikma hosil qilganlarida, eganing belgisiga, ko'rinishiga, xarakteriga akustik tavsifiga va boshqa xususiyatlariga qarab uni belgilab, aniqlab beradilar. Inson yoki bo'lmasa boshqa bir narsaning hatti harakatini, holatini aniqlashda mazkur sifatlar birikma hosil qilish imkoniyatlariga boy bo'lib, bir nechta ot so'z turkumi bilan birikmalar hosil qiladi hamda bu birikmalar turli xil ma'nolarni ifodalab keladi: va h.k.

Nur ein wirklich erfahrenes Auge konnte all die Narben und Kratzer unter der schimmernden Farbe erkennen (A. Kent).

Qiyosiy tadqiq qilinayotgan tillardagi sifat leksemalarning derivation hususiyatlariga xos sifatning bu kabi qiziqarli tarjimalar asosidagi misol va ta'rif-tasniflar nemis tilidan nazariy va amaliy dars mashg'ulotlarida "Sifat so'z turkumi" mavzusini o'rganishda yordamchi, qo'shimcha va mustaqil ishlar uchun material sifatida qo'llanilishi mumkin.

Darhaqiqat, komplimentning shakllanish darajasi har bir jamiyatdagi individumlarning madaniyati, lisoniy, milliy (etnik) o'ziga xosligi, mentaliteti, an'analari, urf-odati, rasm-rusmlari va boshqa bir qancha omillar bilan belgilanadi.

Shunday qilib, nemis va o'zbeklardagi kompliment konseptining lisoniy tarkibida sifat so'z turkumiga oid so'zlarning qo'llanilishi – ular (sifatlar)ning oddiy, qiyosiy va ortirma darajasi mavjud ekanligidadir. Hatto oddiy mulozamat shaklida ham sifatning oddiy darajasi qo'llaniladi. Kognitiv grammatika nuqtai nazaridan tushuntirilganda, axborot beruvchi o'zining fikrini axborot oluvchiga grammatik jihatdan to'g'ri, ma'noviy-mantiqiy jihatdan esa aniq va batafsil yetkazib berish uchun nafaqat sodda til vositalari, balki eng murakkab kognitiv shakl va konseptlarni ham unumli qo'llaydi. Hozirgi ijodiy fikrlash zamonida shaxsni muloqot jarayoniga kompetentli darajada tayyorlash muhim muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu bo'limda tahlil qilingan material va xulosalardan nemis tili darslarida lingvodidaktik maqsadda foydalanish mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, zamonaviy tilshunoslik sohalaridan biri bo'lgan kognitiv tilshunoslik birligi konsept tilning va tafakkurning yanada boyitilishiga va ongimizning o'sishiga katta xizmat qiladi. Shu o'rinda nemis tilida va jamiki tillarda ham konsept mavjud. Konsept - tafakkurmiz va ongimiz oynasi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. usmanova. Lingvokulturologiya B163
2. Baymanov X.A. Inson xarakteriga xos sifat leksemalarning funksional-semantik xususiyatlari (nemis va uzbek tillar misolida). Diss....avtoref. f.f.f. dok. (PhD). – Toshkent 2020
3. Ergash shoir va uning dostonchilikdagi o'rni. Tadqiqotlar 2-kitob, - Toshkent fan, 1971. B 124: 233
4. Safarov Sh. Kognitiv Tilshunoslik – Jizzax: Sangzor, 2006.
5. Karasik.V.I. O kategoriyax lingvokulturologiiyu// yazikovaya lichnost: problem kommunikativnoy deyatelnosti:Sb.nauchn.trudov. – Volgograd.: Peremena, 2001. S.3-16
6. Arutyunova N.D. Выдение // Logicheskiy analiz yazyka. Mentalnye deystviya. – M.: Nauka, 1993.-216s